

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
U.X.Kolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evaton	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
SIYOSAT	
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiев	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
Бурхониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни	297



УО'К: 37.035

**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI MILLIY G'OYA RUHIDA
TARBIYALASHDA ETNOMADANIYATNING O'RNI**

**РОЛЬ ЭТНОКУЛЬТУРЫ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ИДЕИ МОДЕРНИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНА**

**THE ROLE OF ETHNOCULTURE IN EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF
THE NATIONAL IDEA OF MODERNIZATION OF UZBEKISTAN**

Baxronov Doniyor Davronovich

Universitiy of science and technologies (USAT Fan va Texnologiyalar universiteti) dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni tarbiyalashda, ular ongiga Vatanga sadoqat tuyg'usini singdirishda milliy g'oya va etnik qadriyatlarning ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Yoshlarga oid davlat siyosati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalasiga ham ta'rif beriladi. O'zbek xalqi etnomadaniy qadriyatlarining shakllanishi va rivojlanishida ethnologik va etnoijtimoiy omillarning ahamiyati ham ko'rsatib berilgan. Shuningdek maqolada jamiyat taraqqiyotida milliy mafkuraning roli, milliy madaniyat genezisi muammolarini, shu jumladan milliy an'ana va qadriyatlarining ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyati o'rganilgan. Yangilanayotgan O'zbekistonda etnomadaniy qadriyatlarining saqlanishi va rivojlantirishning tarixiy asoslari va innovatsion usullari asoslangan.

Аннотация

В статье на научной основе подчеркивается значение национальной идеи и этнических ценностей в воспитании молодежи, привитии в ее сознании чувства верности Родине. Также определены государственная политика в отношении молодежи, национальные и общечеловеческие ценности. Также показано значение этнологических и этносоциальных факторов в формировании и развитии этнокультурных ценностей узбекского народа. В статье также рассматривается роль национальной идеологии в развитии общества, проблемы генезиса национальной культуры, в том числе значение национальных традиций и ценностей в общественном развитии. В модернизации Узбекистана базируются исторические основы и инновационные методы сохранения и развития этнокультурных ценностей.

Abstract

The article, on a scientific basis, emphasizes the importance of the national idea and ethnic values in educating young people, instilling in their minds a sense of loyalty to the Motherland. The state policy towards youth, national and universal values are also defined. The importance of ethnological and ethnosocial factors in the formation and development of ethnocultural values of the Uzbek people is also shown. The article also examines the role of national ideology in the development of society, the problems of the genesis of national culture, including the importance of national traditions and values in social development. The modernization of Uzbekistan is based on historical foundations and innovative methods of preserving and developing ethnocultural values.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, jamiyat, sivilizatsiya, milliy g'oya, mafkura, etnomadaniyat, urf-odat, an'ana, qadriyat, umuminsoniy qadriyatlar, marosim, madaniyat, taraqqiyot, globallashayogan etnomadaniyat.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, общество, цивилизация, национальная идея, идеология, этнокультура, обычай, традиция, ценность, общечеловеческие ценности, обряд, культура, развитие, глобализирующаяся этнокультура.

Key words: New Uzbekistan, society, civilization, national idea, ideology, ethniculture, custom, tradition, value, universal values, ritual, culture, development, globalizing ethniculture.

KIRISH

Yangi O'zbekiston davlatining yuksak taraqqiyot bosqichlariga erishishidan bu yerda yashayotgan kishilarning hammasi manfaatdordir. O'zbekistonning bugungi va kelgusi taraqqiyoti, ko'r jihatdan, o'zbek xalqining ma'naviy-intellektal salohiyatiga bog'liq. Bu mamlakatda istiqomat qilayotgan turli xalq va elatlarning madaniy-ma'naiy taraqqiyoti o'zlarining milliy-etnik qadriyatlariga tayanadi va shu asosida rivojlantiriladi. O'zbek xalqining bir necha asrlik tarixi, tili va dini, mental

xususiyatlariga doir qadriyatlarining barcha fuqarolarimiz tomonidan keng o'rganib, o'zlashtirish, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lib, yanada rivojlantirish zarur. Bu ishlarning barchasi O'zbekistonning yangi milliy g'oyasini rivojlantirish bilan amalga oshadi.

Insoniyatning ko'p asrlik tarixida milliy davlat qurishga intilgan har bir xalq o'z oldiga qo'ygan yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda millatni birlashtirish va safarbar qilishda milliy g'oya tayanch ekanligiga alohida e'tibor bergen. Bu haqida Prezident Shavkat Mirziyoev shunday degan edi: "...biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston mafkurasi avvalo insonparvarlik, ezgulik va buniyodkorlik mafkurasi bo'ladi. O'zbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy g'oya va ma'naviy yangilanish yo'nalihsida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanganidan dalolat beradi[1, 293].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning etnomilliy tiklanish, xalq etnomadaniyatini rivojlantirishga oid fundamental g'oyalari[2] mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Bobur kabi allomalar madaniyat masalasiga alohida e'tibor qaratganlar[4].

Xorijlik olimlar G.Gadamer, K.Levi-Stross, A.Toyntbi, Y.Xayzinga, O.Shpenglerlar ibtidoi tasavvurlar, urf-odat, turmush tarzi, ongning shakllanish bosqichlari, mehnat qurollarining yaratilishi, til, ijtimoliy-tarixiy jarayonlar, axloq, jamiyat, taraqqiyot bilan bog'liq ayrim etnomadaniy jarayonlarni tadqiq etganlar[5]. Shuningdek etnogenez muammosi L.N.Gumilev, V.A.Tishkov, S.A.Arutyunov, E.S.Markaryan, M. Masson, A.Ya.Flier, V.S.Stepin va A.V. Bondarev asarlarida ko'zga tashlanadi[6]. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining etnomadaniy hayotiga doir tadqiqotlar olib borgan rossiyalik olimlarning ayrim tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin. Masalan, V.V.Bartold, Yu.V. Bromley, Ya.P. Belousovlarning tadqiqotlarida mintaqqa xalqlari etnomadaniyatining turli jithatlari o'rganilgan[7].

O'zbekistonda etnomadaniyat va O'zbekiston sharoitida ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar I.Jabborov, S.Shermuhamedov, G'.Najimov, U.Qoraboev, T.Mahmudov, A.Kurbanmamedov V.Alimasov, M.Sattorov, A.Ochildev, Q.Nasriddinov, O.Nishonova, O.Musaev, U.O'tanova, F.Atamuratova, S.Otamuratov B. To'ychiev, B. Aliev, I. Saifnazarov, A. Erkaev, O'. Abilov, A. Muxtorov, N. Jo'raev, M. Quronov, I. Ergashev, A.O'tamurodov, M. Yuldasheva[8] kabi olimlar muayyan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Mamlakatimiz olimlarining muammoga doir izlanishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ular o'zbek etnomadaniy qadriyatлari tarixini, xususan ularning mafkuraviy jarayonlardagi ahamiyatini o'rganishni ilmiy maqsad qilishmagan.

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasi natijasida “Inson qadri uchun” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi **ettita ustuvor yo'nalihsdan** iborat Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining beshinchи yo'nalihi ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash

ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish masalasi qo'yilishi ham bu borada keng ko'lamli va chuqur ilmiy tadqiqotlarni olib borishni talab qiladi. Strategiyada xalqimizning ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatлarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish va boshqa vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

G'oya – bu konsepsiya, tasavvur va u nafaqat ob'ektiv voqelikni aks ettiradi, balki odamlarni pirovard maqsadga, masalan, vatan ravnaqiga erishish uchun uni harakatga keltiradi. G'oya ko'pchilikni qamrab olganda, u ulkan kuchga ega bo'ladi va nafaqat voqealar rivojini o'zgartirishi, balki oldingi g'oyalarni ag'darishi, tafakkur stereotipini o'zgartirishi va odamlar ongida o'zgarish yasashi mumkin. Ammo mafkura ko'p sonli g'oyalardan kelib chiqib, tizimga aylanganda, odamlarni pirovard maqsadga erishishga yo'naltira oladi. “Milliy g'oya esa xalqning oly maqsadlari, ideallari, erkinlikka va taraqqiyotga intilishining mujassam ifodasi sifatida milliy manaviyatning mohiyatl o'zak tushunchasini tashkil etadi”[9, 224].

Insoniyatning ko'p asrlik tarixida milliy davlat qurishga intilgan har bir xalq o'z oldiga qo'ygan yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo'lda millatni birlashtirish va safarbar qilishda milliy g'oya tayanch ekanligiga alohida e'tibor bergen. Bu haqida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edilar: “Milliy g'oya deganda, ajodolardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning

FALSAFA

eng orzu-intilish va umid-maqsadlarini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, o'ylaymanki, bunday keng ma'noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo'lamiz”[10, 71-72].

Ilmiy tadqiqotlarda g'oyani turli mafkuralardan yuqori turuvchi hodisa sifatida baholashga intilish ham mavjudligini qayd etish zarur.

Milliy g'oya xalqimizning azaliy urf-odat, an'analariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Milliy g'oyani chuqurroq o'rganishda, uning ildizlari, negizlarini anglab olishda qadriyatlar har bir fuqaro hayotida ma'lum darajada ahamiyatlidir. Mustaqillik o'zbek etnomadaniyatidagi an'anaviy qadriyatlarni qayta tiklash, ulardan unumli foydalanish, xalqimizning jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan, ilg'or davlatlar erishgan yutuqlardan, umuminsoniy qadriyatlardan bevosita va to'la bahramand bo'lishiga imkon yaradti.

Etnomadaniyat mutlaq shakllangan, o'zgarmas voqelik emas, u jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar ta'sirida, kishilarning ma'naviy, madaniy, ruhiy ehtiyojlari, qiziqish va talablari ta'sirida transformatsiyaga uchraydi, o'z manfaatlariga mos innovatsiyalarni qabul qiladi. O'zbek etnomadaniyatida esa u zamonaviy san'at turlari - estrada musiqasi, tasviriy san'at, xor san'ati, texnika ijodiyoti, turizm, fizkultura va sport, askiyabozlik, sirk san'ati kabilar bilan shug'ullanishda ko'rindi. Ushbu innovatsiyalar o'zbek etnomadaniyatini dam olish va hordiq chiqarish, ijodiy-madaniy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan yangi, noan'anaviy ijod turlari bilan boyitmoqda.

Etnomadaniyatning an'anaviy xalq madaniyatini yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois etnomadniyat evolyusiyasi va umum qabul qilgan “madaniyat” tasnididan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalarini aniqlash maqsadga muvofiq. Xalq madaniyatining asosiy ko'rinishlari, sohalarini aniqlash bilan birga uning o'ziga xos xususiyatlari va tavsifiy belgilarini aniqlash ham juda katta ilmiy qiymatga egadir.

Madaniyat (xalq madaniyati) ichki tuzilishi va xususiyatlari, ijtimoiy borliqda namoyon bo'lishi va tashkil etilishi, ma'naviy-tarbiyaviy hayotdagi o'rni bilan murakkab, ko'p qirrali, sotsiodinamik hodisadir. Etnomadaniyat esa ushbu hodisaning ma'lum bir xalq, millat ijtimoiy-tarixiy, ma'naviy hayoti, turmush tarzi bilan bog'liq, etnosning tarixiy-madaniy paradigmasing aylangan o'zak qismidir.

Etnomadaniyat xalqning, millatning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, turmush tarzi, tili, urf-odatlari, tashqi dunyoni o'zlashtirish va o'zgartirish, o'zini, o'zligini idrok etish, anglash usullari, xullas, etnosning, millatning mavjudligini ifoda etuvchi ijtimoiy voqelikdir. O'zbek xalqi etnomadaniyatidagi umuminsoniylik va milliylik bir-biriga dialektik bog'liq va uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan subetno-ethno-superetno sistemalarning o'zaro aloqalari va funksional belgilarida namoyon bo'ladi.

Subetnomadaniyatga jamiyat ichidagi elatlar, hududiy milliy guruqlar, o'zining milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashqil etilgan uyushmalarga taalluqli qadriyatlar, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy boyliklar kabilar kiradi. Subetnomadaniyat cheklangan doiradagi etno uyushmalarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ifodalab kelgani ular etnomadaniyatni rang-baranglashtirib, ma'lum bir ichki qonunlarga muvofiq davr talablariga moslashtirib turadi.

MUHOKAMA

Etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyati: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, xalq pazandaligi, xalq amaliy sa'nati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati kabi ko'plab sohalarni ajratsa bo'ladi.

An'anaviy xalq madaniyatining barcha sohalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari o'z aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko'rinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy-g'oyaviy mazmuni qanchalik chuqr bo'lsa, uning shakli ham shuncha baquvvat, ijtimoiy ahamiyati ham umri boqiy bo'ladi.

Respublikamizda milliy qadriyatlarimizga va ma'naviy merosimizga davlat miyosida e'tibor berilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan an'anaviy marosimlarimizni tadqiq qilishda ularning yozma tafsifini berish bilangina cheklanib qolmasdan, balki qadimiy tarixga ega bo'lgan milliy marosimlarimizning xalq turmushi va an'anaviy madaniyatda tutgan o'rni, ularning genezisi va o'ziga xos xususiyatlari hamda saqlanish omillari borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda.

Lekin afsuslar bilan aytish joizki hali xanuz etnologiya, madaniyatshunoslik, folklorshunoslik va xalq turmush-tarzi bilan shug'ullanuvchi fanlar doirasida yuqoridagi terminlarning ta'rifi va tavsifi hamda farqli xususiyatlari borasida mukammal nazariy- metodologik qarashlar ishlab chiqilmagan. SHU bois ba'zi hollarda ayrim tadqiqochilar tomonidan "marosim" va "urf-odat", "an'ana" va "bayram" kabi qator terminlarni sinonim tarzda ishlatish yoki izchil farqlanmagan holda qo'llanilish holatlari ham uchramoqda.

An'ana - tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta'sir o'tkazadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar ongiga singan (umum yoki ma'lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalari majmuasi hisoblanadi.

Urf-odat tushunchasi esa o'ta keng bo'lib, u o'z ichiga xalq hayotining barcha tomonini - oddiy kundalik udum, rasm-rusum, irim-sirimlar, o'zaro muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Marosim tushunchasi nisbatan tor tushuncha bo'lib, u shu xalq hayotining ma'lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko'pincha ramziy harakterga ega bo'lgan va ma'lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat.

Shuningdek, marosim - inson hayotining moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Boshqacha qilib aytganda marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbirdir.

Urf-odat deyilganda kishilarning turmushiga singgib ketgan, ma'lum muddat takrorlanib turuvchi hatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Demak ushbu marosim va urf-odatga berilgan qisqacha qaydlardan ham ko'rinish turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o'z ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi hayotning muayyan sohalarigagina aloqador, xolos. Urf-odat bir vaqtning o'zida bir shaxs yoki bo'lmasa ko'pchilik tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qoida bo'lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan xatti-harakatdir. Jumladan, kichikning kattaga bиринчи salom berishi yoki ko'pchilikka kamchilikning salom berishi yoki mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar, qo'ni qo'shnilar holidan xabar olish kabi ko'rinishlar o'zbeklarga xos milliy urf-odatlardir.

Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o'zaro farqni ular ichidagi ramziy harakatlarni qo'llanilishi darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o'z ichiga ramziy va ramziy bo'lmagan harakatlarni to'la qamrab olsa, marosim faqat ramziy harakterdagi xatti-harakatlarnigina qamrab oladi. Qolaversa urf-odat muayyan xalq uchun asosan bir xil – o'zgarmas qoida, norma bo'lsa, marosim bir xil xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga ham ega bo'ladi. Shuningdek har qanday marosim o'zi mansub bo'lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu bois marosimdan urf-odat elementlarini qidirib topish mukin, lekin urf-odatdan marosimni qidirib bo'lmaydi. Bu o'rinda biroz boshqacharoq tarzda folklorshunos B.Sarimsoqov ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, har qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo'la olmaydi.

O'zbek qadriyatları xalq madaniyatining asosiy negizidir. O'zbekona qadriyatlarning yosh avlod, shu jumladan talabalarni tarbiyalashdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy hamda xushxulqlilik, axloqiy, ruhiy va jismoniy yetuklik borasidagi ulkan tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bu ularning ijtimoiy-pedagogik, ommaviy-maishiy hayoti, yuksak orzu-umidlari-yu ideallari bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 18-oktyabr kuni Toshkentda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sesiyasining ochilish marosimidagi nutqida: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharafli burchimizdir"[3], - deb ta'kidladi.

Milliy ong, milliy qadriyatlar va o'zlikni anglashning rivojlanishi milliy g'oya imkoniyatlarini kengaytirib turadi. "Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda. Dunyodagi ayrim siyosiy markazlar tomonidan ba'zi hududlarda sun'iy ravishda beqaror

FALSAFA

vaziyat yuzaga keltirilmoqda, norozilik kayfiyatları avj oldirilmoqda. Ayniqsa, bugun tobora chuqurlashib borayotgan global iqtisodiy inqiroz turli fitnalar uchun yanada qulay sharoit yaratishini unutmasligimiz lozim”[1, 295-296].

Yaqin tariximizda shakllangan milliy g'oya va uning amaliy ahamiyati, ma'naviy hayotimizda rolining susyib ketgani, yangilangan milliy g'oyaga bo'lgan ehtiyojning zarurati ma'naviy makonda vujudga kelgan ichki va tashqi omillarni, mayjud shart-sharoitlarni, eski va yangi g'oyalar nisbatini o'rganishni taqozo qiladi. G'oya va mafkuraning nisbati haqida gap ketar ekan, ularning shakllanish jarayoni, vaqtini belgilashda ham o'ziga xosliklar kuzatilayotganini qayd etish zarur. Masalaning mohiyatiga kirib borish uchun asos sifatida milliy g'oyaning shakllanish jarayoniga xos xususiyatlar tadqiq etiladigan bo'lsa, u holda uning murakkab va bir-biriga o'tib turadigan, o'zaro uzviy bog'lik bo'lgan bir qator bosqichlarni qamrab olishiga ishonch hosil qilish mumkin[11, 10].

Milliy g'oyaning ta'sir doirasi keng bo'lib, u millatning o'ziga xosligini saqlab turish, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtirish, uyuştirish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash kabilarga o'zining ta'sirini o'tkazadi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, agar millat vakillari halol yo'l bilan boy, badavlat bo'lganini ko'rsang, mamlakatining o'zga mamlakatlarga nisbatan tez rivojlanayotgan, katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritayotganligini ko'rib, ruhing ko'tariladi, kelajakka ishonching ortadi yoki, aksincha, mummolarning to'planib borayotganligini ko'rsang, ruhan ezilasan, qayg'urasan va ularni yechishda o'z hissamni qo'sha olsam edi, degan fikrlar hayolingdan o'tadi. Bunday tuyg'ularning zamini va ildizi milliy g'oyaga kelib taqaladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, milliy g'oya milliy tiklanish va umummilliy taraqqaiyotning muhim manbai hisoblanadi. Milliy g'oya milliy mafkuran shakllantiradi va uning real amalga oshishida millatni birlashtiradi. Milliy g'oyasiz milliy mafkura ham shakllanmaydi. Shu ma'noda milliy g'oyani rivojlantirish millat taraqqiyotining har bir bosqichi uchun dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi. Etnomadaniyat o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini ifoda etadigan voqelikdir. Ma'naviy meros qadimdan ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz, tarixiy manbalardan bizgacha etib kelgan siyosiy, falsafiy, huquqiy, milliy va diniy qadriyatlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlar kabi ma'naviy boyliklar yig'indisi bo'lib, uni xalqimiz hamisha o'rganib boyitganlar.

Xullas, an'anaviy etnomadaniyatni o'rganish va tushunishga murojaat qilish zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlari bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjudligi bilan bog'liq. Uchinchi ming yillik boshida odamlar dunyosi misli ko'rilmagan tezlikda o'zgarmoqda. Iqtisodiy, axborot, madaniy aloqalarning mustahkamlanishi xalqlar taqdirini yagona dunyo taqdiriga bog'laydi, ammo insoniyatning birlashishi sodir bo'lmaydi. Ko'pgina mamlakatlarda fuqarolar urushlari davom etmoqda, millionlab odamlar ajralish va bo'linishda najot izlamoqda. Bugungi kunda butun dunyoda odamlarning o'z etnik o'ziga xosligi – muayyan etnik guruhga mansubligiga qiziqish kuchaymoqda. Bu insoniyat hayotining globallashuv jarayonining boshlanishi sharoitida xalqlarning o'zligini saqlab qolishga intilishining keng tarqalganligi bilan izohlanadi.

Insoniyat tarixi uzlusizlik va muntazamlik, avlodlar, shakllanishlar, sivilizatsiyalar almashinishning cheksiz jarayonidir. Bu jarayonda ma'naviy va moddiy madaniyatning to'plangan qadriyatları avloddan-avlodga sinchkovlik bilan o'tib kelayotgan etnik guruhlar gullab-yashnaydi. Etnik guruhlarning xalq madaniyati an'analari ushbu qadriyatlarni saqlash va oshirishga xizmat qiladi, ularni o'rganish va tushunish har safar o'z etnik guruhining ham, jamiyatning ham, butun insoniyatning (hatto hozirgacha bo'lsa ham) tubdan muhim muammolarini shakllantirish va hal qilishga yordam beradi. Etnik guruhlarning xalq madaniyati an'analari va ularning globallashuv jarayonidagi rolini o'rganish endi faqat nazariy ahamiyatga ega emas. Qanchalik uzoq bo'lsa, u insoniyat hayotining globallashuv oqimiga tushib qolgan muayyan etnik guruhlar va jamiyatlar hayotining talabi sifatida shunchalik ko'tariladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.– B. 293.; 295-296.
- Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Tom 1. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. – 592 b.
- Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziliqi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Tom 2. – Toshkent: «O'zbekiston», 2018. – 508 b.
- Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. -190 b.; Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 1968. -486 b.

5. Gadamer G.G. Aktualnost prekrasnogo. –M.: Iskusstvo, 1992; Toynbi A. Dj. Postijenie istorii. –M.: Progress, 1991. –S.688; Toynbi A. Dj. Sivilizatsiya pered surom istorii. –M.: Rolf, 2002. –S.802; Xayzinga Y. Homo Ludens v teni zavtrashnego dnya. – Moskva: AST, 2004. –S.540; Shpengler O. Zakat Evropy. – Moskva: Progress, 1993.
6. Gumilev L.N. Etnosfera. Istoryya lyudey i istoriya prirody. – M., 1993. – S.41; Lixachev D.S. Pisma o dobrom i prekrasnom // Sobr.soch. t. 4. –M.: «LOGOS». 2002. –S.256.
7. Bartold V.V. Istoryya kulturnoy jizni Turkestana// Sochineniya. V 9-ti t. -M.: Nauka, 1966.-T.P. -4.1.
8. Atamuratova F.S. Mustaqillik sharoitida o'zbek milliy mentalitetida etnomadaniy jarayonlar (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals. fan. nom. ... dis. avtoref. –Toshkent: 2010. -24 b.
9. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. Ma'naviyat metodologiyasi va praksiologiyasi / A. Erkaev. - Toshkent: «Ma'naviyat», 2018, – B. 224.
10. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch." -Toshkent., "Ma'naviyat", 2008. 71-72 bet.
11. Ochildev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 2004. –B. 10.
12. Kandov B. (2024) [The Role of Healthy Ideologies in Maintaining Social Stability](#) // Miasto Przyszlosci. – Kielce: Polsha. Vol.45. 2024. –pp. 500-506.
13. Kandov B.M (2022). [Family is the Most Important Social Factor of Ideological Education](#). Miasto Przyszlosci. Special Issue. –P.66-96.
14. Kandov Bahodir Mirzayevich (2024). [Social and Legal Basis for Ensuring Employment of the Population in the Conditions of Modernization of Uzbekistan](#). // Miasto Przyszlosci. – Kielce: Polsha. Vol. 45. 2024. – pp. 488-492.
15. Kandov B.M. (2023) [The negative impact of social networks on the spirituality of young people in the context of globalization](#) // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Volume 4, Issue 3. – pp. 780-789.
16. Kandov Bahodir Mirzayevich. (2023) Socio-Theoretical Foundations of Educational Reforms in the New Uzbekistan // International Journal of Human Computing Studies. Volume: 05, Issue: 03. Mar 2023. – pp. 62-68.
17. Kandov Bahodir Mirzayevich. (2023) [Issues of the Influence of Social Networks on the Spirituality of New Independent Youth](#). // Miasto Przyszlosci. – Kielce: Polsha. Vol. 40. 2023. – pp. 574-579.
18. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2023). [The essence of universal human values and their influence on changes in the spiritual life of youth](#). Open Access Repository. – pp.796-803.
19. Kalkanov Eshmatboy Tashpulatovich. (2024) [Patriotism as an Attributive Sign of Forms of Social Consciousness](#) // Miasto Przyszlosci. – Kielce: Polsha. Vol. 45. 2023. – pp. 478-483.
20. Kandov Bahodir Mirzayevich (2022). [The Role of Education and the Mahalla Institute in Forming the Personality of the Person](#). Central asian journal of theoretical & applied sciences. – P.515-521.
21. Kandov B.M., Kuyliyev Tulkin (2022). [Socio-Philosophical Issues of Introducing the National Idea into the Minds of the Youth of New Uzbekistan in the Context of Globalization](#). TELEMATIQUE. Vol.21 Issue 1, – P.6847-6853.
22. Kandov B. (2022) [Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan](#). Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.
23. Solieva Lobar Rasulovna (2023). [Features of the use of innovative educational technologies in improving the modern education system of Uzbekistan](#). World Bulletin of Social Sciences. – pp.144-147.
24. Bahodir Qandov (2022). [O'zbekistonda fugarolik jamiyat bargarorligini ta'minlashda oiladagi axloqiy tarbiyaning o'rni](#) // International Conference on Advance Research in Humanities. May 28th 2022. – P. 335-339.
25. Kandov Bahodir Mirzayevich. (2022). [The role of ideological education in the prevention of spiritual threats](#). European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA). Vol. 3No.06, June 2022. – P. 27-30.
26. Kandov B.M. (2022). [The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals](#) // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
27. Kandov Bahodir Mirzayevich (2022). [Formation of a constitutional and legal culture is a guarantee of human rights](#). International Conference on Advances in Education, Social and Applied Sciences London, U.K July 9th. – P.103-107.
28. Kandov B.M. (2022). [Features of Increasing the Legal Awareness and Legal Culture of Young People](#) // Miasto Przyszlosci. Special Issue. –pp.108-111.